

TARBIYANING ETNOMADANIY OMILLARI

Sobirova Marhabo¹

Nizomiy nomidagi TDPU

KEYWORDS

o'zbek xalqi, tarbiya,
etnomadaniy omillar, urf-odat,
an'ana, udum, marosim.

ABSTRACT

Dunyodagi har bir xalq, har bir millat o'ziga xos tizimni tashkil etuvchi, xalq tomonidan turmush tarzining zaruriy sharti deb qabul qilingan etnomadaniy omillariga ega. Etnomadaniy omillar xalq turmush tarziga, dunyoqarashi va tafakkuriga singib ketgan urf-odat, an'ana, udum, marosim va hk. larda namoyon bo'ladi. Ular har bir millatda o'ziga xos tizimni tashkil etadi, xalq tomonidan turmush tarzining zaruriy sharti deb qabul qilinadi. Etnomadaniy omillarda xalqqa, millatga, eng muhimi, insonning insonga bo'lgan hurmat-e'tibori va sadoqati mujassamlashgan. Shu bois ularni o'rganish bugungi ilmiy jarayonda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shulardan kelib chiqqan holda ushbu maqolada tanlangan mavzu etnomadaniy omillar – o'zbek xalqining urf-odat, an'ana, udum va marosimlari misolida ko'rsatilib, tahlil qilingan. Mavzu doirasida muallifning shaxsiy nuqtai nazari bayon qilinib, asosli xulosalar chiqarilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15650664**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bu dunyoda inson bor ekan, u tarbiyaga muhtoj. Chunki u aynan shu jihati bilan boshqa jonzotlardan farq qiladi. Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlarni o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlarni voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanadi. Bu jarayonning o'ziga xos xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir.

Qadimdan Sharq mamlakatlarida ta'lim-tarbiya jarayonida urf-odat, an'ana va marosimlardan unumli foydalanib kelingan. Bu bejiz emas. Sababi urf-odat, an'ana va marosimlarda butun bir xalqning ijtimoiy ehtiyojlari, axloq normalari, manfaatlari, amaliy tajribalari va tarixiy yashash sharoitlari o'ziga xos ravishda mujassamlangan bo'ladi.

¹ Nizomiy nomidagi TDPU "Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrası professori, falsafa fanlari nomzodi

O'zbek olimasi S.Yo'ldosheva urf-odat, an'ana va marosimlar xalqning faoliyati jarayonida tug'ilishini alohida ta'kidlaydi. Har bir xalq butun tarixi davomida yashash sharoitining xarakteri va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kishilar o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum normada yo'l-yo'riqlarini yaratadi. Bu norma va yo'l-yo'riqlar avloddan-avlodga o'tish bilan takrorlanib, urf-odat, an'ana va marosimlarga aylanib qoladi(2).

Shakllangan etnomadaniy omillar shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishuvida muhim rol o'ynaydi. Ular shaxsning xulq-atvorini ijtimoiy jihatdan belgilovchi, boshqarib turuvchi va shakllantiruvchi vazifalarni bajaradi. Qaysi bir urf-odat, an'ana va marosimlarning kelib chiqish sabablarini o'rganmasdan turib qaraydigan bo'lsak, ular bir qarashda, be'mani, behuda bo'lib ko'rinadi. Biroq aslida biz ularni chuqurroq o'rgansak, ularning barchasi odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy faoliyati natijasida paydo bo'lganligini va ularning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilganini ko'ramiz. Chunki ular xalq ma'naviy-ruhiy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi.

Har bir davrning, har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik sharoitiga xos bo'lgan va uni o'zida aks ettiradigan etnomadaniy omillar tizimida muhim o'rin tutuvchi – urf-odat, an'ana, udum va marosimlari bo'ladi. Odamzod ongli hayot kechira boshlagandan buyon vujudga kelgan urf-odat-u marosimlar, udum va an'analarni hisoblab chiqish qiyin. Ular xalq hayotining ma'naviy qiyofasida muhim o'rin tutadi.

Milliy urf-odat, an'ana, udum va marosimlarda butun bir xalqning ijtimoiy ehtiyojlari, axloq normalari, manfaatlari, amaliy tajribalari va tarixiy yashash sharoitlari o'ziga xos ravishda mujassamlangan bo'ladi. Ular xalqning faoliyati jarayonida tug'iladi, har bir xalq butun tarixi davomida yashash sharoitining xarakteri va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kishilar o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum normada yo'l-yo'riqlarini yaratadi. Bu norma va yo'l-yo'riqlar avloddan-avlodga o'tish bilan takrorlanib, urf-odatlar va an'analarga aylanib qoladi(2). Shakllangan urf-odat, an'ana va marosimlar shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Urf-odat, an'ana, udum va marosimlar bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lsa-da, ayni paytda o'z xususiyati, mohiyati va namoyon bo'lish jihatiga ko'ra bir-biridan jiddiy farq qiladi.

Quyida ularning har biriga qisqacha bo'lsa-da, alohida to'xtalib o'tishga harakat qilamiz:

Urf-odat – ijtimoiy madaniy hayotida o'z aksini topgan, kishilarning turmush-tarziga singib ketgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko'nikmalaridir. Milliy urf-odatlar ayniqsa o'zbek xalqida o'ziga xos tarixiy xususiyatlarga ega bo'lib, an'anaviy va zamonaviy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Milliy urf-odatlar dastlab shaxs va millat doirasida alohida shakllanadi.

Masalan, o'zbeklarda kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida keksa, kasal, ojiz, nogiron, iqtisodiy jihatdan qiynalgan kishilar holidan xabar olish, qo'shnilarning biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar o'zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi.

“Odat” degan tushuncha psixologiyada ham mavjud bo'lib, u ma'lum sharoit ta'sirida vujudga kelib, kishining fe'l-atvorida mustahkamlanib qolgan va keyinchalik o'z-o'zidan

beixtiyor bajariladigan harakat ma'nosini bildiradi.

Udum deyilganda esa umum tomonidan qabul qilingan va amal qilinadigan tartib, odat, rasm-rusumlar tushuniladi.

An'ana – o'tmishdan kelajakka meros bo'lib kelayotgan, avloddan avlodga o'tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy qadriyatlardir. Milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy va boshqa an'analar mavjud bo'lib, ular xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi. Odamlarning turmush tarzi, moddiy sharoitlari turli an'analarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Muayyan ijtimoiy tartib-qoidalar, axloq me'yorlari, urf-odat, marosimlar – bularning barchasi an'analar sifatida namoyon bo'ladi. O'z o'rnida an'analar ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning barcha sohalariga xos hodisa sifatida juda keng doirani qamrab oladi. Ma'lum bir jamoaning turmush tarzi, xatti-harakati, xulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi.

An'anada kishilarning narsa va buyumlarga, tabiatga bo'lgan munosabatlari ifodalanadi. Ma'lumki, san'at va adabiyotda, armiyada, maktab, litsey, kollej, universitetlarda, sport va ishlab chiqarish jamoalarida urf-odat emas, balki an'analar mavjud bo'ladi. Masalan, harbiy xizmatga yangi kelgan askarning qasamyod qabul qilishi, oliy o'quv yurtiga kirgan yoshlarning talabalar safiga qabul qilinishi, yirik sport musobaqalarida g'olib sportchi sha'niga mamlakat bayrog'ining ko'tarilishi – bularning barchasi an'analar hisoblanadi.

Bundan tashqari an'analarning ta'sir doirasi nisbatan keng bo'lib, bitta an'ana bir necha urf-odat, udum va marosimlarni o'zida qamrab olgan bo'lishi mumkin.

Masalan, mehmondo'stlik u yoki bu darajada har bir xalq va millatga xos bo'lgan xususiyatdir. Lekin bu xususiyat o'zbek xalqining milliy xususiyatiga, milliy an'anasiga aylanib qolgan. Mana shu mehmondo'stlik an'ansi bir necha urf-odatlar, an'analar orqali to'la namoyon bo'ladi. Masalan, har qanday vaziyatda ham o'zbek qoidalariga ko'ra mehmon har doim ochiq chehra va shirin kalom bilan kutib olinishi zarur. Xonadondagi eng noyob narsalar mehmon oldiga qo'yiladi. Mehmonning qadr-qiymati yuqori darajada qadrlanadi.

Marosim – inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, umum qabul qilingan tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanaladi.

Marosim kishilar hayotidagi eng muhim voqealar: tug'ilish, uylanish, yashash, o'lim kabilarini qayd etadi, rasmiylashtiradi. "Marosim" so'zi jamoatchilik ishtirokida o'tkaziladigan katta tadbir ma'nosini bildiradi. Marosimlarni o'tkazishda avloddan-avlodga o'tadigan, ramziy va rasmiy an'analar, qoidalarga amal qilinadi.

O'zbek oilalarida o'tadigan biron-bir yig'ilish, marosim, tantali to'y-tomoshalar, hashar va obodonlashtirish ishlari kattalarsiz, keksalarsiz, ularning maslahatisiz o'tmaydi. Uzoq safarga ketayotgan har bir kishi, qaytayotgan har bir kishi albatta, mahalla va qishloqning hamma keksalarini va xasta bo'lib yotgan kishilarni borib ziyorat qilishi zarur. Agar safardalik davrida mahalladagi biror kishi vafot etgan bo'lsa, birinchi navbatda uning oilasiga borib ta'ziya bildiriladi. O'zbek xalqining asriy an'ana va urf-odatlarisiz, xalqni birlashtiradigan mafkurani shakllantirish mumkin emas. Bu o'rinda mahallaning alohida o'rne bor. Jamiyat hayotida totuvlik va ijtimoiy tarbiyani tashkil qilishda mahallaning ahamiyati beqiyosdir. Bu

haqda o'zbekistonlik olim A.Ibrohimov shunday yozadi: "Odam-odamlarga suyanib, orqa qilib yashaydi. Odam-odamlardan odamiylikni o'rganadi. Bu xalqimizning falsafiy mushohadalaridandir. Bir so'z bilan aytganda, biz asta yig'lab, baralla kuladigan xalqmiz. O'zbek mahallalarida inson shunday ta'lim-tarbiya oladi"(3). Albatta bularning barchasi yosh avlod xotirasiga qattiq muhrlanadi.

Oilada farzandlarga ertaklar aytib, ularda ezgu amallarni qaror toptira borish an'analar orasida eng azaliysidir. Albatta, farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin bolalarini yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish o'zbek xalqi uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e'tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko'pgina hayotiy misollarda ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qush uyasida ko'rganini qiladi, inson oiladagi etnomadaniy omillar – urf-odat, an'ana, udum va marosimlar asosida kamol topadi. Har bir oila miqyosida shakllangan urf-odat, an'ana va marosimlar xalqning, millatning o'tmishini ask ettiradi, o'ziga xosligini ko'rsatadi. O'z oilasi, o'z yurti tarixini, oilasiga xos urf-odat, an'ana va marosimlarni chuqur bilgan, ulardan to'g'ri saboq chiqara olgan odamda o'ziga ishonch shakllanadi. Urf-odat, an'ana, udum va marosimlar zahirida esa xalqning milliy ma'naviyati yuksaladi.

ADABIYOTLAR:

1. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри.-Тошкент: Абдулла Қодирий номли халқ мероси, 1993 йил, 52,182-бетлар.
2. Йўлдошева С. Халқ урф-одатлари ва анъаналари. – Тошкент: Ижод дунёси, 2003 йил, 46-бет.
3. Иброҳимов А. Ўзбек маҳалласи.-Тошкент:Маънавият, 2007 йил, 24-бет.
4. "Авесто". Тарихий - адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси– Тошкент: Шарқ, 2001 йил, 59-бет.
5. Наврўзова Г.Н., Зоиров Э.Х., Юнусова Г.С. Тасаввуфда инсон ва унинг камолоти масаласи. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2006 йил, 6-бет.
6. Собирова М.А. Ёшларни миллий ўзликни англаш руҳида тарбиялашда этномаданият ва миллий ғоя омилларидан фойдаланиш //Илмий хабарнома/ Заҳириддин Муҳаммад Бобур номидаги Андижон давлат университети, 2021/6 (58), 32-41 бетлар.
7. List of Intangible Cultural Heritage of Uzbekistan/"Central Asia-ICHCAP Cooperative Project: Publishing an ICH Inventory Booklet" carried out by the ICHCAP and the National Commission of the Republic of Uzbekistan for UNESCO.